



**PREZIDENT SH.M.MIRZIYOYEV RAHNAMOLIKLARIDA IKKINCHI JAHON
URUSHIDA QATNASHGAN VATANDOSHLARIMIZNING XOTIRASINI YOD
ETISHGA QARATILGAN E'TIBOR**

Zokirjonov Mirzohid Shuhrat o'g'li

Shon –Sharaf davlat muzeyi kichik ilmiy xodimi

Annotatsiya: Prezident Sh.M.Mirziyoyev rahnamoliklarida ikkinchi jahon urushida qatnashgan vatandoshlarimizning xotirasini yod etishga qaratilgan e'tibor haqida bilib olishingiz mumkin.

Inson, millat va xalq tarixiy xotira bilan chambarchas bog'liqdir. Xotira bu kechagi o'tmishni, ajdodlar o'gitini, milliy merosimizni anglatib turuvchi muqaddas kitob zarvaraqlaridek yoritib turadi. Qadr esa insonni yuksaklikka ko'taradi, uning faoliyatiga va maqsadiga hamda orzu intilishlariga maslaklariga oliy janoblik bag'ishlaydi. Bukilmas iroda va jasorat na'munalarini amalda namoyon etib, Vatanimiz ravnaqi yo'lida o'z jonini qurbon qilgan yurtdoshlarimiz hayoti va faoliyatini abadiylashtirish ishlari O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgach istiqbolning dastlabki kunlaridanoq boshlangan edi. 2001-yildan boshlab yurtimizda fashizm ustidan qozonilgan kun 9-may "Xotira va qadrlash kuni" sifatida nishonlana boshlandi. Bugungi kunda muhtaram Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonlaridan ham Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fronti ishtirokchilari shuningdek mustaqillik yillarida Vatan himoyasi va xizmat burchini bajarish jarayonida mardlarcha halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari hamda ularning oila a'zolarini ijtimoiy-huquqiy jihatdan himoyalash ishlari amalga oshirilib kelinmoqda. Bu borada davlatimiz rahbarining 2018-yil 16-aprel kunidagi "Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish



chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3667-sonli qarori qabul qilinib unga binoan mamlakatimizda xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishga qaratilgan dastur ishlab chiqildi. Dasturda belgilangan vazifalarni samarali bajarilishini ta'minlash uchun O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov rahbarligida ishchi guruh tashkil qilindi va uning vazifalari aniq belgilab olindi. Shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida joylashgan "Motamsaro Ona" haykallariga Respublikamizning yuqori martabali mansabdor shaxslari hamda fuqarolar tomondan Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan yurdoshlarimizning xotirasiga bag'ishlab gullar qo'yish, xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazish uchun tashkiliy qo'mitalar tuzish ishlari olib borildi.

Bundan tashqari Prezidentimizning 2019-yil 23-oktabr kunidagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligini yuqori saviyada nishonlash haqida"gi PQ 4495-sonli qaror imzolandi. Bu qarorning mazmuni shundan iboratki yurtimizda "Ajdodlarimiz jasorati mangu bar hayot" degan konseptual g'oya asosida mamlakatimizdagi barcha viloyat, tuman va shaharlarda o'zbek xalqining Ikkinchi jahon urushi yillarida front orti va oldida qilgan fidokorona mehnati, fashizm ustidan qozonilgan g'alabani ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi, yuz minglab insonlarga ko'rsatgan insonparvarlik na'munalariga bag'ishlab konsertlar, tasviriy san'at, "uch avlod" uchrashuvlari, harbiy- sport musobaqalari, ijodiy kechalar o'tkazish, fashizmga qarshi kurashda qahramonlik ko'rsatgan vatandoshlarimizga bag'ishlab yangi va badiiy hujjatli filmlar, musiqa va san'at asarlari yaratish ishlari olib borilmoqda. Arxiv va muzey ashyolari asosida Vatanimizning Ikkinchi jahon urushi davri tarixini o'rganish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilib ularning natijasida

Usmon Yusupov, Sobir Raximov, Zebo G'aniyeva, Sharof Rashidov, Mamadali Topiboldiyev, Yo'ldosh Oxunboboyev, Abdujabbor Abdurahmonov Mullajon Uzoqov kabi vatandoshlarimizning hayoti va faoliyatini tarixchi olimlarimiz tomonidan ilmiy



asosda o'rganilib kelinmoqda va badiiy filmlar yaratishga kirishildi. El-yurtimizning urush yillaridagi jasorati, ko'rsatgan xizmatlari Vatanimiz tarixida keng qamrovda o'rganilib kelinmoqda. Urushda qatnashgan vatandoshlarimizning xotirasini abadiylashtirish maqsadida yurtboshimizning 2020-yil 9-sentabr kunidagi "G'alaba Bog'i yodgorlik majmuasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ 4820 –sonli qarori qabul qilinib G'alaba Bog'i yodgorlik majmuasi va uning tarkibidagi "Shon-Sharaf" davlat muzeyi faoliyati yo'lga qo'yildi.

Butun dunyoni titratgan Ikkinchi jahon urushida qatnashgan xalqimiz farzandlarining hayotini, faoliyatini davlat oldidagi xizmatlarini yoshlarimizga va jahon jamoatchiligiga singdirish yuzasidan Vazirlar Mahkamasi, Mudofaa, Ichki ishlar, Xalq ta'limi, madaniyat, Sog'liqni saqlash, Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirliklari, Nuroniy jamg'armasi, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixini o'rganish ilmiy metodik markaz, Davlat xavfsizlik xizmati, Davlat Xavfsizlik Xizmatning chegara qo'shinlari tomonidan salmoqli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Xulosa. Ikkinchi jahon urushi insoniyat tarixida juda ko'p musibatlar va yo'qotishlar olib keldi. Fashizmga qarshi kurash xalqlarni birlashtirdi va fashizmga qarshi kurashda bir tanu bir jon bo'lib umumlashga olib keldi. Tarixning bu urushi o'zidan juda katta iz qoldirgan. Hozirgi kunda ham bu urushning sabablari, natijalari ilm-fan doirasida o'rganilib kelinmoqda. O'z navbatida O'zbekistonimizning bu g'alabaga qo'shgan hissasi naqadar og'ir kurashlar natijasida qo'lga kiritilganligi va erishilganligini takidlash lozim. Ajdodlarimiz kurashgan bu tarix davrlari mardlik, matonat va jasorat ruhi bilan abadiylashtirilgan. Kelajak avlodga misol bo'la oladigan tarixiy voqealarga boydir. Bugungi kunda tarixchilar oldida Ikkinchi jahon urushi davrida O'zbekiston SSRning hayoti qanday bo'lgan degan savol tug'ilmoqda. Zotan xorijiy mamlakatlarda xususan Rossiya Federatsiyasining o'zida ham O'zbekistonning fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan tarixiy g'alabani ta'minlashga qo'shgan munosib hissasi haqida ko'plab ilmiy tezislar va maqolalar yozilgandir. Vaholanki o'zbek xalqi kommunistik



partiya va mustabid tuzum uchun emas balki Vatan uchun bosqinchi va yovuz kuchlarga qarshi kurashdi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin esa 1-Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbuslari bilan urushda halok bo'lgan Vatandoshlarimizning xotiralarini abadiylashtirishga qaratilgan ishlar amalga oshirildi. Hozirda ham bu borada Prezident Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ishlar davom ettirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish chora tadbirlari to'g'risida"gi 2018-yil 16-aprel kunidagi PQ 3667-sonli qarori
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaning 75 yilligini nishonlash to'grisida"gi 2019-yil 23-oktabr kunidagi qarori
3. Usmonov Q. Sodiqov M. O'zbekiston Tarixi (1917-1991) Toshkent Sharq 2010
4. Lafasov M. Jahon Tarixi (1918-2008) Toshkent Turon Iqbol 2010
5. Haydarov Z.U. Namangan viloyati o'tmish va bugun (1917-2014) NAMDU 2014